

## Badiiy Adabiyot Vositasida O'quvchilarning Lingvistik Kompetentligini Takomillashtirish

*Ulasheva Umida Maxmadamin qizi*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** O'quvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish hozirgi kunda ta'lim jarayonida dolzabr masalalardan biri hisoblanadi. Bunga dabab globalizatsiya va axborotlashuv davrida chet tillarni bilish, o'z ona tilida muloqot qilish qobiliyatini mukammallashtirish va lingvistik tafakkurni rivojlantirish talablari ortib borayabdi. Shu ma'noda badiiy adabiyot o'quvchilar til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Foydalanish va zavqlanish, badiiy dunyo, badiiy adabiyot vositasi, kompozitsion vositalar, janr vositalari, stilistik usullar, lingvistik kompetentlik.

Sohaga oid tarixiy manbalarda Rim shoiri K.Horasi tomonidan adabiyotning "foydalanish (prodesse) va „zavqlanish“ (delectare) kabi funksiyalari qayd etilganiga guvoh bo'lamiz. Buni – ma'rifatparvarlik davridagidek – adabiyot o'quvchi/ kitobxoniga (axloqiy) saboqlar yoki bilimlarni qiziqarliroq yoki estetik jihatdan jozibali tarzda yaqinlashtirishi deb tushunish mumkin. Mazkur funksional ta'rif diniy adabiyotlar, ma'rifatparvarlik davriga tegishli hikoyalar, xatto o'tgan asrning bolalar va o'smirlar adabiyotiga ham tegishlidir. Ushbu matnlar o'z o'quvchilarini voqeylik haqidagi qarashlar, shu jumladan, ularning madaniyatida muqimlashgan, ya'ni keng tarqalgan, lekin shaxsan ular uchun yangi bo'lgan qadriyatlar va me'yorlar bilan tanishtirishi mumkin. Shu sababli (adabiyotni) o'qish pedagogik funksiyaga ega. O'qishning mazkur funksiyasi adabiy kommunikasiyaning o'ziga xos xususiyati emasligi o'z-o'zidan tushunarli, chunki uni kundalik hayotimizda duch keladigan turli matnlar: badiiy va nobadiiy matnlar ham bajarishi mumkin. Ammo badiiy matnlar madaniy-pragmatik qarashlarni juda ta'sirli tarzda etkazib berishi bilan ajralib turadi. Chunki bu matnlar umumiy ma'no potensialiga ega bo'ladi va voqelikni obrazli tasvirlaydi. Bular, o'z navbatida, fanda badiiy adabiyotdan foydalanishning madaniy pragmatik qarashlar funksiyasi ostida umumlashtiriladi.

K.Horasi tomonidan qayd etilgan "foydalanish va zavqlanish" funksiyasi kengroq ma'noda tushunilishi mumkin; bu muayyan foydadan mustaqil bo'lgan estetik zavqni ham qamrab oladi. Bunday matnlar (faqqat) madaniy pragmatik shakllangan va boshqa matn turlaridan ham shu tarzda olinishi mumkin bo'lgan qarashlarnigina etkazish funksiyasiga ega emas. Shuningdek, matnlar estetik zavq berish bilan cheklanmaydi. To'g'rirog'i, ular adabiyotga xos tarzda o'z o'quvchilariga voqelikka nafaqat o'quvchi, balki ularning madaniyati uchun ham yangi bo'lgan qarashlarni taklif etadi; tabiat yoki jamiyat haqidagi qarashlar, insoniyat yoki ularning ichki dunyosi o'rtasidagi munosabatlar shular jumlasidandir. Bu "yangi qarashlar"ni mutlaqo yangi deb emas, balki notanish yoki noodatiy deb tushuniladi. Ular odatda mavjud qarashlar bilan mushtarak "chegara"larga ega va ko'pincha butunlay yangi narsadan ko'ra odatdagidan ko'proq farqlashni taklif qiladi, shuningdek, boshqa madaniyalarda yoki hatto ba'zi adabiy janrlarda juda keng tarqalgan bo'lishi mumkin.

Muayyan madaniyat uchun yangi qarashlar xuddi ba'zi nobadiiy matnlarda bo'lgani kabi ilmiy emas, ya'ni sharhli atamalar va tizimli ishlab chiqilgan bilimlarga asoslanmagandir. Aksincha, adabiy matnlar mazmunni (personajlar, voqealar) jonli va hissiy jihatdan jozibali ko'rinishda taqdim etishga moyil bo'ladi. Ba'zi hollarda ijtimoiy hayot, til, fikr va idrok shakllari boshqa madaniyatlarga yoki oldingi davrlarga tegishli bo'lishi mumkin. Shunday qilib, dars jarayonlarida badiiy adabiyot materiallaridan foydalanish "madaniy xotira"ni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi va madaniyatlararo ta'limga

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti



o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Boshqa hollarda esa badiiy matnlar utopik xususiyatga ega, ya'ni ular tarixda hali amalga oshmagan hayotiy imkoniyatlarni ifodalaydi.

Badiiy adabiyotning yangi qarash/ nuqtai nazarlarni tuzishga o‘rgatish funksiyasi mazmun va badiiy matnlar uchun asosiy sanalgan maxsus shakl o‘rtasidagi munosabatga asoslanadi; bu munosabat matnni “ko‘p man'noli/ ko‘p ma'noda tushunish mumkin bo‘lgan” qiladi va o‘quvchiga matnni sub'ektiv (matniy) qo‘shimchalar kiritish imkoniyatini beradi. Shu tarzda o‘quvchi yangi yoki farqli nuqtai nazarlarga ega bo‘lishi mumkin. Buning asosi shundaki, o‘quvchi yangi nuqtai nazarlarni o‘z fikrlash va idrok etish shakllari bilan qiyoslaydi va ularni integrasiya qiladi. Shu asnodan o‘quvchi yangi qarashdan o‘z hayot haqiqatini, qolaversa, hatto o‘z dunyo qarashi yoki xulq-atvorini o‘zgartirish uchun yangi nuqtai nazar sifatida foydalanishi mumkin. Natijada bunday o‘zgarishlar o‘quvchi madaniyatining yanada rivojlanishiga ham hissa qo‘shishi ko‘zda tutiladi.

Badiiy adabiyotning muayyan madaniyat doirasida yangi qarashlarni o‘rganishga undash funksiyasi P.Rikor tomonidan ishlab chiqilgan matnni tushunishning germenevtik modelida aniq tasvirlanganligini sohaga oid adabiyotlar tahlilidan bilishimiz mumkin: muayyan badiiy matn o‘quvchiga “o‘zi hayot kechirishi va o‘z(ining eng qimmatli) imkoniyatlarini loyihalashtirishi mumkin bo‘lgan” hayot tarzi loyihasini taqdim etadi”. Natijada matn mazmuni o‘quvchi tomonidan individual interpretasiya qilinadi. Shu tarzda o‘quvchi (tinglovchi) estetik zavqni his etadi. Shu bilan birga, u til bilan yangi tajribaga ega bo‘lishi va shu tariqa hayotiy yangi nuqtai nazarni o‘zida shakllantirishi mumkin. Shu tarzda resepsiya, ya'ni matnni qabul qilishda til endi nafaqat elementlari ifoda va mazmun (an'anaviy bir-biriga bog‘langan)ni ifodalovchi bir tizim sifatida emas, balki turli xil assosiasiyalarni keltirib chiqaruvchi tovushlar va harflar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavjud tadqiqotlar tahlilidan badiiy matnlarni darslarda qo‘llashning yoki umuman adabiyot darslarining maqsadlari turli didaktik modellarda bir-birini to‘ldirishi ayon bo‘ladi. Ularning ko‘pchiligida bir xil yoki juda o‘xshash maqsadlar qayd etiladi: “o‘qish”ni rag‘batlantirish (o‘qishdan zavqlanish va o‘qishga nisbatan motivasiyani oshirish ma'nosida)ga xizmat qilishi va o‘quvchilarga adabiy ta'limning turli jihatlarini yaqinroq etkazishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga, matnni tushunish kompetensiyasi (ya'ni, tahlil va talqin qilish kompetensiyasi), estetik idrok, tasavvur, ijodkorlik, empatiya (va uning asosida shaxsiyatni shakllantirish va “o‘zga”larni tushunish) rivojlantirilishi hamda adabiyot haqida (masalan, muhim asarlar/ mualliflar/ davrlar) bilim berilishi kabi maqsadlar sohaviy manbalarda uchraydi. Bundan tashqari, adabiy matnlarning voqelikka mosligi va muloqot vositasi kabi maqsadlar ham tilga olinadi.

Xorijiy manbalarda bu borada qator modellar ishlab chiqilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, nemis olimlari M.Loybner, A.Saupe va M.Rixterlar tomonidan taklif etilgan modelda yuqorida tilga olingan umumiylikka asoslanilib, adabiyot darslarining maqsadlari tizimlashtiriladi; bu maqsadlar ayniqsa PISA tadqiqotlari maqsadlarini o‘zida aks ettirishi tahsinga sazovor. Shuningdek, ushbu maqsadlar ko‘plab tafsilotlar bo‘yicha turlicha ta'lim dasturlarining umumiy asosini tashkil etishini alohida ta'kidlash joiz (1-rasmga qarang)

O‘rganilgan adabiy-didaktik modellar, asosan, tegishli maqsadlar ahamiyatini turlichi talqin qilishlari bilan o‘zaro farqlanadi. Uzoq vaqtlar davomida o‘qishdan zavq olish va o‘qish uchun motivasiyani oshirish badiiy adabiyotdan foydalanilgan darslarning asosiy maqsadi sifatida qabul qilingan.

O‘tgan asrning 80-90 yillarida o‘qishdan zavqlanish/ o‘qish uchun motivasiya adabiy ta'limni taqozo etadi hamda ular o‘zaro ta'sir, munosabati asosida rivojlanishi zarur, degan qarash keng tarqalganligi sohaga tegishli manbalarda yoritiladi. Buni V.Merkelbax ishonarli tarzda bayon qilgan. Mazkur masala doirasida olim tomonidan chop etilgan nashrlarda tasavvur va empatiyani rivojlantirish, shuningdek, shaxsiyatni shakllantirish va “o‘zga”larni tushunish kabilar markaziy maqsadlar qatoriga kiritilgan. Ammo 2001 yilda PISA-tadqiqotining nashridan keyin nafaqat adabiyot, balki badiiy adabiyotdan foydalaniladigan barcha darslarda boshqa bir maqsad muhim ahamiyat kasb etishni boshladi: “matnni tushunish kompetensiyasini rivojlantirish”. Keyingi tadqiqotlarda ham ushbu tendensiyaning guvohi bo‘lamiz. Natijada keyingi konsepsiyalarda o‘qishdan zavqlanish va o‘qish uchun motivasiyadan tashqari adstavval, o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish/ rag‘batlantirish haqida so‘z bormoqda.



Adabiy didaktikaning matnni tushunish kompetensiyasiga ko‘proq e’tibor qaratish orqali zaruriy qayta orientasiyasi ushbu kompetensiyaning badiiy adabiyotdan foydalanishdagi asosiy maqsadga aylanishiga olib kelishi to‘g‘ri sanalmaydi. Shuningdek, turli maqsadlarning tartibsiz “yonma-yon” qo‘yilishi ham foydali emas. Buning o‘rniga, ko‘rsatilgan maqsadlarni dars uchun samarali ravishda bir-biriga bog‘lash zarur. Bunday tartib yuqorida qayd etilgan adabiyot funksiyalari asos bo‘ladi: o‘quvchilar badiiy matnlar mazmuni/ kontekstini yangi qarash, nuqtai nazar uchun foydalanishlari kerak. Bu uchun ular matnlarga mos va bir vaqtning o‘zida individual tushunishga etishishlari zarur. Shundan kelib chiqib, badiiy matnlar qo‘llaniladigan darsning markaziy maqsadi sifatida matnni tushunishni nazarda tutish mumkin, bu esa uzoq vaqt davomida keng tarqalgan qarashga muvofiqdir; buni G.Valdman ishlarida kuzatishimiz mumkin: “Adabiyot, qolaversa har bir , badiiy matnlar qo‘llaniladigan darsning hal qiluvchi funksiyasi – o‘quvchilarni adabiy matnlarni tushunishga yo‘naltirish, boshlashdir”. Bizningcha, badiiy matnlar darslarda o‘quvchilarning ijodiy yozish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qilishi uning asosiy funksiyalaridan biri sifatida qayd etilishi zarur.

Badiiy matnlardan foydalaniladigan darsdan kutilgan asosiy maqsad bilan birga uning qo‘shimcha maqsadlarini belgilash orqali muhim bir savol, ya’ni O‘quvchilar adabiy matnlarni (samarali tarzda) tushunishlari uchun aniq nima qilishlari kerak, degan savolga javob topiladi.

Dastavval o‘quvchilar odatda matnlar so‘zlari va jumllarini to‘g‘ri anglashi kerak, bu – asosiy o‘qish qobiliyati sanalib, u badiiy adabiyotdan foydalaniladigan darsning maxsus maqsadi emas, balki til metodikasi sohasidagi masala hisoblanadi. Ushbu asosda, o‘quvchilar – tabiiy o‘qish jarayoni va fanlararo konsensusga muvofiq – matnning markaziy elementlarini va ularning o‘zaro bog‘lanishini aniqlashi kerak, masalan, personajlarning xususiyatlari, ular o‘rtasidagi munosabatlar yoki ular yuzlashgan qiyin vaziyat haqida.

Badiiy matn elementlarini to‘g‘ri anglash o‘quvchining har xil bilimlar vositasida amalga oshiriladi; natijada matnning o‘quvchiga taklif etadigan “badiiy dunyo”ni va insonlarning tasavvurini aniqlashtirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаевна, Ш. К., & Фагимовна, Ш. Н. (2020). Нетрадиционные методы обучения русского языка и литературы. *Суз санъати*,(3).
2. Samarova, S. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
3. Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(10), 37-43.
4. Рахманова, М. К. (2019). Изучение стратегии обучения. *Приоритетные векторы развития промышленности и сельского хозяйства материалы II международной научно-практической конференции*, 7, 95-101.
5. Rajabova, I. T. (2020). Лингводидактические аспекты глаголов, выражающие перемещения, на уроках русского языка с учащимися с узбекским языком обучения. *Academic research in educational sciences*, (4).
6. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. *Academic research in educational sciences*, (3).
7. Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

